

Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tomonidan
"Pedagoglar attestatsiyasi tizimidagi yangiliklar va ularning ta'lim sifatiga
ta'siri" mavzusida matbuot anjumani
D A S T U R I

Tashkilotchi:	Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi
O'tkazish vaqti	2026- yil 29-yanvar kuni
O'tkazish joyi	Viloyat matbuot uyida
10:00-11:00	MAVZU : Samarqand viloyati umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar salohiyati va attestatsiya jarayonlari tahlili"Pedagoglar attestatsiyasi tizimidagi yangiliklar va ularning ta'lim sifatiga ta'siri" R.Yo'ldoshev Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'I o'rinbosari
11:00-11:30	Savol-jabob

PRESS-RELIZ 29.01.2025

Samarqand viloyati umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar salohiyati va attestatsiya jarayonlari tahlili

Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlar salohiyatini mustahkamlash hamda ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda viloyatdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida jami 62 027 nafar pedagog xodimlar faoliyat yuritmoqda. Ularning kasbiy toifalar kesimidagi taqsimoti quyidagicha:

Oliy toifali pedagoglar – 6 875 nafar (11,1 foiz),

Birinchi toifali pedagoglar – 11 782 nafar (19,0 foiz),

Ikkinchi toifali pedagoglar – 14 876 nafar (24,0 foiz),

Mutaxassis toifasidagi pedagoglar – 21 626 nafar (34,8 foiz),

Toifasiz pedagog xodimlar – 6 868 nafar (11,1 foiz).

Mazkur ko'rsatkichlar pedagog kadrlarning salmoqli qismi kasbiy rivojlanish jarayonida ekanini, shu bilan birga, toifalarni oshirish va malaka darajasini yuksaltirishga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

Attestatsiya jarayonlari natijalari

2025 yil davomida pedagog xodimlar uchun ikki marotaba attestatsiya jarayonlari tashkil etildi. Ushbu jarayonlarga jami 37 783 nafar pedagog xodimlar jalb qilindi.

Attestatsiya natijalari tahliliga ko'ra:

12 739 nafar pedagog xodimlar attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tib, ijobiy natija qayd etdi;

7 366 nafar pedagog xodimlar salbiy natija ko'rsatdi;

17 678 nafar pedagog xodimlar 56 balldan past natija bilan attestatsiyadan o'ta olmadi.

Ushbu natijalar pedagog xodimlar bilan maqsadli ishlash, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash choralari

Pedagoglarni rag'batlantirish va ularning mehnat samaradorligini oshirish maqsadida 2025 yil davomida 876 nafar pedagog xodimlar yuqori natijalarga erishib, 70 foizlik ustama olish huquqini qo'lga kiritishdi. Bu esa ta'lim tizimida mehnatni munosib baholash va pedagoglarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarning amaliy natijasidir.

Navbatdagi attestatsiya jarayonlari

Ayni paytda navbatdagi attestatsiya jarayonlari uchun hujjatlar qabul qilish ishlari boshlangan. Pedagog xodimlar tomonidan attestatsiyada ishtirok etish uchun arizalar 1 mart kuniga qadar qabul qilinadi.

Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tomonidan pedagog xodimlarni attestatsiya jarayonlariga tayyorlash, ularga metodik va amaliy yordam ko'rsatish, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tizimli ishlar kelgusida ham davom ettiriladi.

Telefon- 97-922-08-40